

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOBOYEV SHODIYOR XUROZMATOVICH**

**SAMARQAND VILOYATIDA AGROSANOAT KLASSTERLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI**

**11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on geographical sciences**

**Boboyev Shodiyor Xurozmatovich**

Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishning  
geografik asoslari ..... 3

**Бобоев Шодиёр Хурозматович**

Географические основы развитие агропромышленных кластеров в  
Самаркандской области ..... 23

**Boboyev Shodiyor Khurozmatovich**

Geographical foundations of the development of agro-industrial clusters in the  
Samarkand region..... 43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOBOYEV SHODIYOR XUROZMATOVICH**

**SAMARQAND VILOYATIDA AGROSANOAT KLASTERLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI**

**11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Gr268 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Turdimambetov Izimbet Raxmetovich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Xalilova Xurshida Teshayevna**  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 12-sentabr soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (95) 410-20-10, faks: (0366) 239-19-36; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 70-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 29-avgust kuni tarqatildi.  
(2025-yil 20 avgustdagi № 16-raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.B.Abbasov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
g.f.d., professor

**B.A.Meliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
g.f.f.d (PhD), dotsent

**Q.S.Yarashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, g.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon aholisi sonining muntazam o'sishi uning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab darajasining yanada ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi aholini oziq-ovqat, sanoatni esa xom ashyo bilan ta'minlashdan iborat. Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarishni miqdor va sifat jihatdan takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni yechish masalaning dolzarbligini belgilaydi. BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish dasturi"ning to'qqizinchi maqsadida "Kuchli infratuzilmani yaratish, xavfsiz va barqaror sanoatlashgan innovatsiyalarni rivojlantirish"<sup>1</sup> vazifasi belgilab qo'yilgan. Mazkur vazifaning ijobiy yechimini topishda hududlarda agrosanoat klasterlarini rivojlantirish bu boradagi muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan davlatlar agrar sohasiga e'tibor qaratilsa, kooperatsiya va klaster tizimi asosida mahsulot yetishtirish, uni qayta ishlash, saqlash va ichki hamda tashqi bozorlarga sotish tizimi yanada rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Hozirgi zamonaviy ilmiy yondoshuvlarga tayanilsa, nazarda tutilayotgan omillarni iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatidan kelib chiqib tizimlashtirishni taqozo etadi.

Jahonda agrosanoat klasterlari faoliyatini innovatsion qo'llab-quvvatlash maqsadida klasterlarni innovatsiya maktablari, institutlar, ilmiy markazlar va boshqa shu kabi muassasalar bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, klasterlar faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy etish, shuningdek, mamlakatning jahon bozoriga chiqishida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlagan holda, iste'molchilarga yetkazib berish tizimini takomillashtirishda zamonaviy agrosanoat klasterlarini yanada rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda agrosanoat klasterlarini shakllantirishni qo'llab-quvvatlash va ularning faoliyatini rivojlantirish qishloq xo'jaligi sohasi samaradorligini oshirish, milliy va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish, qishloq hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim faoliyat sohalardan biri bo'lib bormoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yilgacha kambag'allikni ikki baravarga qisqartirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan<sup>2</sup>. Bu borada klasterlar siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tadqiqi sohaga oid muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-

<sup>1</sup> <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/infrastructure-industrialization/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 10-yanvardagi "Paxta to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-2-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 253-son, 2019-yil 25-sentabrdagi "Boshqoli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 806-son, 2023-yil 26-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-23-sonli Qarorlari va agroklastlar faoliyatini rivojlantirishga bag'ishlangan boshqa rasmiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, asosiy yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari xorijlik olimlar M.Porter, S.Ketels, Ö.Sölvell, G.Lindqvist, E.Bergman, E.Ferser, C.Bojlar tomonidan, agrosanoat klasterlarlarining rivojlanishi esa L.Kiminami, A.Kiminami, S.Sharma, E.Nogales, F.Theus, R.Rama, M.Yu, L.Erling, R.Mueller, A.Jankoviaklar tomonidan o'rganilgan.

Iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirishning nazariy-konseptual asoslari, xorijiy tajribalar, agrosanoat klasterlarining iqtisodiy ahamiyati kabi masalalar MDH mamlakatlari olimlaridan Y.Dorjiyeva, L.Markov, L.Shukina, Y.Limetti, V.Kundus, R.Xikmatov kabilarning ilmiy izlanishlarida qisman o'z aksini topgan. O'zbekistonlik iqtisodchi va geograf olimlardan R.Alimov, D.Kurbanova, A.Rasulov, M.Raxmatov, T.Jo'rayev, M.Kamilova, A.Alimov, A.Abduvaliyev, N.Xolmatov, R.Ro'ziyev, M.Xusainov, G.Zohidov, D.Mirzaxalilova, Ch.Murodov, N.Maxmasobirova, D.Begimova, S.Ergashev kabi tadqiqotchilar mazkur yo'nalishda bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan.

Biroq, ushbu sohaga oid adabiyotlar va tadqiqotlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda agrosanoat klasterlarni shakllantirishning o'ziga xos hududiy xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar chuqur tahlil etilmagan hamda ularni o'rganishga kompleks ravishda yondashilmagan.

Shuningdek, O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar kam sonli bo'lib, mavjud adabiyotlarda

agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning hozirgi holati, mavjud muammo va imkoniyatlar asosan nazariy jihatdan tahlil etilib, amaliyotda kuzatilayotgan jarayon va munosabatlar e'tibordan chetda qolgan hamda mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan bog'liqlik masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Ushbu holat esa mazkur dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-nazariy va amaliy muammolar hamda ularning yechimiga oid taklif va tavsiyalarining dolzarbligini yaqqol namoyon etadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedraasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Janubi-g'arbiy O'zbekiston geosistemalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy geografik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarining hududiy joylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash asosida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining ilmiy yechimiga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarni hududiy tashkil etish imkoniyatlari va ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;

qishloq xo'jaligida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim yo'nalishlarni o'z ichiga olgan xorijiy tajribalar va undan foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ArcGIS dasturi asosida agrosanoat klasterlarining hududiy joylashuvi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy ko'ratkichlari aks ettirilgan kartalarini yaratish;

Simpleks usulini qo'llash orqali viloyatidagi agrosanoat klasterlarining asosiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashirish orqali aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarining joylashuv xususiyatlari, ularga ta'sir etuvchi omillar va ularning hududiy muammolarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik, ekonometrik modellashirish, iqtisodiy-statistik tahlil, tanlanma sotsiologik so'rovnoma, SWOT tahlili va GAT texnologiyalaridan keng foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim yo'nalishlarni o'z ichiga olgan tajribalarni amaliyotga joriy qilish, fermerlar faoliyati, davlat, ta'lim dargohlarining o'zaro hamkorligiga asoslangan Niderlandiya tajribasi negizida "Ishlab chiqaruvchi-davlat-fan" uchlik modeli ishlab chiqilgan;

ArcGIS dasturi asosida ilk bor “Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi va agrosanoat klasterlarinig joylashuvi”, “meva-sabzavotchilik klasterlari”, “paxta-to‘qimachilik” va “g‘allachilik klasterlarining” hududiy joylashuvi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlari aks ettirilgan 1:900000 masshtabli kartalari yaratilgan;

Simpleks usulini qo‘llash orqali Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarining (Afrosiyob Jeans va Samarqand Kamalak Invest misolida) hosildorlik ko‘rsatkichi, budjetga to‘langan soliqlar so‘mmasi, jalb qilingan investitsiyalar hajmi va yaratilgan ish o‘rinlari soni bo‘yicha asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari baholangan hamda ulardagi paxta xomashyosi, ishchi kuchi va boshqa kiruvchi resurslarning daromadga aylanish darajasini aniqlashga qaratilgan model ishlab chiqilgan;

Samarqand viloyati agrosanoat klasterlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo‘lgan talab, klasterlar infratuzilmasining holati, ularni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolar, klasterlar va fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi munosabat hamda agrosanoat klasterlarini rivojlantirish istiqbollari ijtimoiy sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazish orqali aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarni hududiy tashkil etish imkoniyatlari va rivojlanishiga ta’sir etuvchi geografik omillarning ta’siri “past”, “o‘rtacha”, “kuchli” darajada baholangan;

qishloq xo‘jaligida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan Niderlandiya tajribasi va undan Samarqand viloyatida foydalanish imkoniyatlariga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ArcGIS dasturida asosida agrosanoat klasterlarining joylashuvi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlari aks ettirilgan 1:900000 masshtabli kartalari yaratilgan.

Simpleks usulini qo‘llash orqali Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari baholangan hamda ulardagi paxta xom ashyosi, ishchi kuchi va boshqa kiruvchi resurslarning daromadga aylanish darajasini aniqlashga qaratilgan modeli ishlab chiqilgan.

Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarining faoliyat turlari bo‘yicha klasterlar soni, ularda yaratilayotgan ish o‘rinlari, eksport salohiyati, jalb qilinishi kutilayotgan investitsiyalar hajmiga oid iqtisodiy ko‘rsatkichlarining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlari ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi va ularning hududiy boshqarmalari ma’lumotlaridan foydalanilganligi, asosiy natijalar respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan metodologik hamda uslubiy taklif

va tavsiyalar, modellarning ishlab chiqilganligi asosida agrosanoat klasterlarining faoliyatini rivojlantirish va ularning ishlab chiqarishdagi iqtisodiy samaradorligini oshirishni takomillashtirish, klasterlarni rivojlantirishga xizmat qilishi, shuningdek klasterlarni eksport-import salohiyati hamda aholi bandligi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududlardagi agrosanoat klasterlarining faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi, "Samarqand viloyati qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi va agrosanoat klasterlarinig joylashuvi", "meva-sabzavotchilik klasterlari", "paxta-to'qimachilik" va "g'allachilik klasterlarining" hududiy joylashuvi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlari aks ettirilgan 1:900000 masshtabli kartalarini yaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishning geografik asoslari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qishloq xo'jaligida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim yo'nalishlarni o'z ichiga olgan: tajribalarni amaliyotga joriy qilish, fermerlar faoliyati, davlat, ta'lim dargohlarining o'zaro hamkorligiga asoslangan "Ishlab chiqaruvchi-davlat-fan" uchlik modeliga asoslangan Niderlandiya tajribasi asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi qoshidagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi 05/06-02-312-son ma'lumotnomasi). Natijada, ilm-fanda erishilgan yutuqlar va ilmiy yangiliklarni ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri qo'llash samaradorligini oshirish imkonini bergan.

ArcGIS dasturida asosida ilk bor "Samarqand viloyati qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi va agrosanoat klasterlarinig joylashuvi", "meva-sabzavotchilik klasterlari", "paxta-to'qimachilik" va "g'allachilik klasterlarining" hududiy joylashuvi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlari aks ettirilgan 1:900000 masshtabli kartalaridan Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi qoshidagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi 05/06-02-312-son ma'lumotnomasi). Natijada, Samarqand viloyatining ixtisoslashuvi asosida agrosanoat klasterlarini shakllantirish, klasterlarning ba'zi turlarini rivojlantirish imkonini beruvchi hududlarni belgilab olish, shuningdek, kartalarda keltirilgan klasterlarga oid iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar agrosanoat klasterlarinig rivojlantirish strategiyasini jadallashtirish imkonini bergan;

Simpleks usulini qo'llash orqali Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarining (Afrosiyob Jeans va Samarqand Kamalak Invest misolida) hosildorlik ko'rsatkichi, budjetga to'langan soliqlar so'mmasi, jalb qilingan investitsiyalar hajmi va yaratilgan ish o'rinlari soni bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari baholangan hamda ulardagi paxta xomashyosi, ishchi kuchi va boshqa kiruvchi resurslarning daromadga aylanish darajasini aniqlashga qaratilgan modeldan Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi amaliyotida

foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi qoshidagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi 05/06-02-312-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Samarqand Kamalak Invest Tekstil" klasterida tola ishlab chiqarish xarajatlarining 5% ga kamaytirish resurslardan maksimal samarali foydalanish imkonini bergan;

Samarqand viloyati agrosanoat klasterlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talab, klasterlar infratuzilmasining holati, ularni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar, klasterlar faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy hamkorlik ahamiyati, klasterlar va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi munosabat hamda agrosanoat klasterlarini rivojlantirishga qaratilgan takliflaridan Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi qoshidagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi 05/06-02-312-son ma'lumotnomasi). Natijada, agrosanoat klasterlaridagi mavjud muammolarni aniqlash, ularning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar va mavjud muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari va mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 2 ta Scopus ba'zasi tizimiga kiritilgan xalqaro konferensiyalarda, 5 ta OAK ro'yxatidagi ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar va xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsatadigan ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tgan ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 152 bet bo'lib, uning 126 beti matn qismidan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida O'zbekiston Respublikasi va jahonda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatyasi, chop etilgan natijalar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Agrosanoat klasterlarini geografik jihatdan tadqiq etilishning nazariy masalalari**" deb nomlanib, unda ilmiy tadqiqotlarda agrosanoat klasterlarini o'rganishning nazariy masalalari, agrosanoat klasterlarini rivojlantirishda Niderlandiya tajribasi va O'zbekistonda agrosanoat majmuasining shakllanishi va rivojlanishinig ilmiy-uslubiy asoslari o'rganildi va takomillashtirildi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish O'zbekistonning iqtisodiy siyosatidagi asosiy ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda agrar sohaning izchil taraqqiyotini ta'minlashda tarmoqlararo va hududiy integratsiyalashgan tuzilmalarni rivojlantirishda klasterlar muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda esa klaster deganda "bir geografik hududdagi ishlab chiqarish kompaniyalari, xom-ashyo yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatish korxonalari, tegishli sohalardagi firma va jamoat institutlari (tadqiqot institutlari, ta'lim maskanlari va standartlashtirish institutlari)ning zich tarmog'i" tushuniladi.

Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, asosiy yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari xorijlik iqtisodchi olimlar M.Porter, S.Ketels, Ö.Sölvell, G.Lindqvist, E.Bergman, E.Ferser, C.Bojlar tomonidan, agrosanoat klasterlarlarining rivojlanishi esa L.Kiminami, A.Kiminami, S.Sharma, E.Nogales, F.Theus, R.Rama, M.Yu, L.Erling, R.Mueller, A.Jankoviaklar tomonidan tadqiq etilgan. Milliy iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirishning nazariy-konseptual asoslari, xorijiy tajribalar, agrosanoat klasterlarining iqtisodiy ahamiyati kabi masalalar MDH mamlakatlari olimlaridan Y.Dorjiyeva, L.Markov, L.Shukina, Y.Limetti, V.Kundus, R.Xikmatov kabilarning ilmiy izlanishlarida qisman o'z aksini topgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi va geograf olimlardan R.Alimov, D.Kurbanova, A.Rasulov, M.Raxmatov, T.Jo'rayev, M.Kamilova, A.Alimov, A.Abduvaliyev, N.Xolmatov, R.Ro'ziyev, M.Xusainov, G.Zohidov, D.Mirzaxalilova, Ch.Murodov, N.Maxmasobirova, D.Begimova, S.Ergashev kabilar mazkur yo'nalishda bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Xususan, R.Alimov, D.Kurbanova, M.Kamilova, D.Begimova, S.Ergashev mamlakatimizda paxta sanoati klasterlarini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lsa, Y.S.Be, D.M.Mirzaxalilova hamda G.E.Zahidov O'zbekiston yengil sanoatida klasterlarni rivojlantirish masalalarini o'rgangan. A.Abduvaliyevning monografik tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari, hududiy innovatsion klasterlarni rivojlantirishning xorij tajribasi, N.Maxmasobirova o'z tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotni klaster modellari asosida rivojlantirishning jahon tajribasi (agrosanoat majmui misolida), mamlakatimizda klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini chuqur tahlil etilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ilmiy-nazariy masalalar bilan birga unga o'zlarining ta'riflarini ham keltirishgan. Klasterga beriladigan eng sodda ta'rifga ko'ra "klaster sanoat guruhi, yaqinlik hamda faoliyat umumiylikiga ega kompaniyalar guruhidir"<sup>3</sup>. Bugungi kunda klaster atamasiga *lokal iqtisodiy aglomeratsiya, industrial hududlar, hududiy ishlab chiqarish komplekslari, yangi sanoat joylari, neommarshall tugunlari, innovatsion muhit, tarmoq hududlari* deya berilgan ta'riflar uchradi. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning klasterga

---

<sup>3</sup> [www.dictionary-economics.ru/cluster](http://www.dictionary-economics.ru/cluster)

bergan ta'riflari asosida shunday xulosaga kelish mumkin, bizning fikrimizcha *“klaster bu - hududiy rivojlanish va geografik jihatdan bir joyga to'plangan bir faoliyat sohasidagi turli korxonalarning o'zaro hamkorligi va zanjirli tizim asosida ishlab chiqarishni tashkil etilishidir”*.

“Iqtisodiy klaster – geografik jihatdan yaqin joylashgan va muayyan sohada ixtisoslashgan tarmoqlar (ishlab chiqarish sektori, ilmiy tadqiqot sektori, boshqaruv sektori (mahalliy hokimiyat organlari) va qo'shimcha xizmat ko'rsatuvchi sektorlar (bank, sug'urta, logistika, uyushmalar))ning o'zaro hamkorligi va raqobati natijasida shakllanadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidir”<sup>4</sup>. Turli xil iqtisodiy maktablarning klasterning mohiyatiga yondoshuvi har xil bo'lib, ilmiy maktablarning klaster atamasiga ta'rifi aks ettirilgan.

Umuman olganda, agrosanoat klasterini shakllantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sishini rag'batlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda uzoq muddatli istiqbolda mehnat unumdorligini oshirish hisoblanadi. Xususan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotiga (FAO) ham klasterlarni agrobiznes va agrosanoatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi strategiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki, agroklastlarlar qishloq xo'jaligini va agrosanoatni rivojlantirish va barqarorlashtirish hamda agrobiznes, ayniqsa kichik va o'rta korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradigan muhitni yaratishning samarali usuli sifatida tan olinib, agro oziq-ovqat zanjiri ishtirokchilariga, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarga katta foyda keltiradi hamda barqaror raqobatbardoshlik uchun siyosat, institutlar va xizmatlar olib boradigan qulay biznes muhitini yaratadi.

Ayrim olimlar agrosanoat majmuasining tarkibi 6 ta, ayrimlari esa 5 ta, bir guruhi 4 ta va boshqa vakillari 3 ta sohadan iborat deb hisoblashgan. Ularning har biri agrosanoat majmuasi tarkibini ilmiy izlanishning maqsadi bo'yicha izohlagan. Agrosanoat majmuasining tarkibini ilmiy asarlarda belgilangan tasnifini birortasini inkor qilmagan holda uning tarkibini 4 ta sohaga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Agrosanoat klasterlari ko'plab davlatlarda yuqori darajada rivojlangan. Yevropa agrosanoatida muhim davlatlardan biriga aylangan Niderlandiya o'zining qishloq xo'jaligi va uni qayta ishlash sanoati orqali mintaqada asosiy davlatga aylanib ulgurdi. Yillar davomida gollandlar qishloq xo'jaligi biznesini yuritish, minimal resurslardan foydalanish va shu bilan birga maksimal foyda olish uchun muvaffaqiyatli strategiyalarni amalga oshirmoqda. Mamlakat haqiqiy agrosanoat klasterlari va qishloq xo'jaligi markaziga aylangan. Niderlandiyaning agrosanoat klasterlarini rivojlantirishdagi tajribasi yuqori texnologiyalar, ilm-fan bilan integratsiya, samarali boshqaruv va eksportga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslangan bo'lib, bu yurtning qishloq xo'jaligi sohasida dunyodagi yetakchi o'rinlardan birini egallashiga imkon yaratgan.

Ushbu tajriba O'zbekiston sharoitida klaster tizimini yanada takomillashtirish,

---

<sup>4</sup> Maxmasobirova N.U. Milliy iqtisodiyotni klaster modellari asosida rivojlantirishning jahon tajribasi (agrosanoat majmui misolida). Monografiya. - Toshkent, 2024. -b.22.

ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda katta ahamiyat kasb etadi. Niderlandiya tajribasiga qaratilgan modelning asosiy jihatlarini o'rganish va moslashtirish orqali mahalliy agrosanoat klasterlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarini tashkil etish asoslari**" deb nomlangan. Mazkur bobda viloyatda agrosanoat klasterlarni hududiy tashkil etish imkoniyatlari va ta'sir etuvchi geografik omillarni baholash, viloyat qishloq xo'jaligi hududiy ixtisoslashuvining agrosanoat klasterlarini tashkil etishdagi ahamiyati va Samarqand viloyati iqtisodiyotida agrosanoat klasterlarning roli ochib berilgan. Viloyatda bir qancha yirik agrosanoat klasterlari mavjud bo'lib, ularda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash amalga oshiriladi.

#### 1-jadval.

#### Samarqand viloyati agrosanoat klasterlari haqida umumiy ma'lumot (2024-y)

| Agroklasterlar                  | Soni      | Biriktirilgan<br>maydoni,<br>ming ga | Shundan               |                     |                  |
|---------------------------------|-----------|--------------------------------------|-----------------------|---------------------|------------------|
|                                 |           |                                      | Klasterda,<br>ming ga | Ferma xo'jaliligida |                  |
|                                 |           |                                      |                       | Soni                | Maydoni, ming ga |
| Paxta-to'qimachilik klasterlari | 12        | 83232                                | 12638                 | 2231                | 70694            |
| G'allachilik klasterlari        | 11        | 86027,5                              | 5915                  | 4112                | 80112,5          |
| Meva-sabzavotchilik klasterlari | 12        | 21360                                | 2527,7                | 2455                | 18832,6          |
| Chorvachilik klasterlari        | 2         | 767                                  | 767                   |                     |                  |
| Parrandachilik klasterlari      | 1         | 3,5                                  | 3,5                   |                     |                  |
| Baliqchilik klasterlari         | 2         | 32                                   | 32                    |                     |                  |
| Dorivorchilik                   | 1         | 57                                   | 57                    |                     |                  |
| <b>Jami</b>                     | <b>41</b> | <b>191479</b>                        | <b>21940,2</b>        | <b>8798</b>         | <b>169639,1</b>  |

Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Hozirgi kunda asosan paxta-to'qimachilik, g'allachilik va meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik dorivorchilik kabi agrosanoat klasterlari faoliyat yuritmoqda. Samarqand viloyatida 2024-yilda 41 ta qishloq xo'jaligi klasterlari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularga jami 191479 gektar qishloq xo'jaligi yer maydonlari biriktirilgan. Eng ko'p sonli klasterlar paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik sohasida tashkil etilgan holda, ularning umumiy soni har ikkala sohada ham 12 tadan yoki jami klasterlarning 29,2 foizini tashkil etadi. Keyingi o'rinlarni g'allachilik – 15 (26,8 %), chorvachilik-2 (4,9 %),

baliqchilik-2 (4,9 %), dorivor o'simliklar – 1 (2,4 %) va parandachilik – 1 (2,4 %) klasterlari egallaydi (1-jadval).

Viloyatda mazkur tashkil etilgan agrosanoat klasterlari tumanlarning qishloq xo'jaligida ixtisoslashuvi asosida tashkil etilgan. Tumanlar bo'yicha ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, klasterlar faoliyat turlari uchun ajratilgan yer maydonlari hisobida Kattaqo'rg'on tumani 13,7%, Pastdarg'om tumani 11,5%, Ishtixon tumani 10,6%, Narpay tumani 9,1%, Jomboy tumani 7,1% oldinda turadi. Agrosanoat klasterlarini rivojlanishi birinchi navbatda qishloq xo'jaligida suv omillari bilan bog'liq. Shu o'rinda hududlar qishloq xo'jaligida ko'proq lalmikor dehqonchilik ustun bo'lgan tumanlarda yosh rivojlanayotgan chorvachilik klasterlari va parrandachilik klasterlarini yo'lga qo'ysak, hududlar iqtisodiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

## 2-jadval


### Samarqand viloyatida tashkil etilgan agrosanoat klasterlari soni va ularda aholi bandligi, birlikda (2024-y)

| №  | Tumanlar nomi | Klasterlar soni | Viloyatga nisbatan %da | Band aholi soni | Viloyatga nisbatan %da |
|----|---------------|-----------------|------------------------|-----------------|------------------------|
| 1  | Oqdaryo       | 3               | 7,3                    | 618             | 6,0                    |
| 2  | Bulung'ur     | 2               | 4,8                    | 381             | 3,7                    |
| 3  | Jomboy        | 2               | 4,8                    | 742             | 7,2                    |
| 4  | Ishtixon      | 3               | 7,3                    | 1031            | 10,0                   |
| 5  | Kattaqo'rg'on | 7               | 17,8                   | 1365            | 13,2                   |
| 6  | Qo'shrabot    | -               | -                      | -               | -                      |
| 7  | Narpay        | 2               | 4,8                    | 955             | 9,2                    |
| 8  | Payariq       | 4               | 9,7                    | 794             | 7,7                    |
| 9  | Pastdarg'om   | 1               | 2,4                    | 984             | 9,5                    |
| 10 | Paxtachi      | 2               | 4,8                    | 820             | 7,9                    |
| 11 | Samarqand     | 4               | 9,7                    | 1049            | 10,1                   |
| 12 | Nurobod       | 1               | 2,4                    | 16              | 0,3                    |
| 13 | Urgut         | 5               | 12,1                   | 163             | 1,7                    |
| 14 | Toyloq        | 5               | 12,1                   | 1399            | 13,5                   |
|    | <b>Jami</b>   | <b>41</b>       | <b>100</b>             | <b>10317</b>    | <b>100</b>             |

Jadval Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Viloyatda g'allachilik klasterlari soni 11 tani tashkil etib, ularga umumiy 86027,5 gektar yer maydonlari birlashtirilgan bo'lib, ulardan 5915 gektari klasterlarga tegishli yer maydonlari, qolgan qismi esa 4112 ta fermer xo'jaliklari hisobida bo'lgan 80112,5 gektar yer maydonlari hisoblanadi.

# **SAMARQAND VILOYATINING QISHLOQ XO'JALIGI IXTISOSLASHUVI VA AGROSANOAT KLASTERLARI KARTASI**



1-rasm. Samarqand viloyatining qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi va agrosanoat klasterlari kartasi

Agrosanoat klasterlarining tumanlar kesimida ajratilgan va birlashtirilgan qishloq xo'jaligi yerlariga ko'ra g'allachilik klasterlarida eng katta ulush Tayloq (39,8 %, 34267,5 ga), Oqdaryo (20,7 %, 17836 ga), Kattaqo'rg'on (10.5 %, 9078 ga), Narpay (7,6 %, 6590 ga), Paxtachi (7,2 %, 6254 ga), Ishtixon (5,7 %, 4917 ga) hamda Urgut tumanlariga (3,5 %, 3040 ga) to'g'ri kelmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlarida 633 ta agrosanoat klasterlari faoliyati yo'lga qo'yilishi va ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan loyihalar natijasida so'nggi 3 yilda hududlarda 152 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan. Bu kabi loyihalar barcha yo'nalishdagi klasterlar tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirishning imkoniyatlari tadqiq etilayotgan mintaqada yana ham yuqori. Respublika qishloq xo'jaligida Samarqand viloyati o'zining ulkan salohiyati bilan alohida ahamiyatlidir. Hududlarning o'ziga xos jihati, barcha turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish imkoniyatining mavjudligidir.

### 3-jadval

#### Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarining tasniflanishi

|                                      | <b>Paxta-to'qimachilik klasterlari</b>                                                                              | <b>Meva-sabzavotchilik klasterlari</b>                                                    | <b>G'allachilik klasterlari</b>                                                                                     |
|--------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Yirik agrosanoat klasterlari</b>  | Samarqand Kamalak invest tekstil, Afrasiyab jeans textile, Paxtachi klaster, Maroqand sifat, Maroqand sifat tekstil | Agromir, Pet agro oil, Bulung'ur-Sandvik, Samarqand garden plast, Navobod naslli parranda | Pet agro oil, Afrasiyab jeans textile, Kattakurgan g'alla cluster, Humo agro Platinum, Mirzayev Shuxrat Kenjayevich |
| <b>O'rta agrosanoat klasterlari</b>  | Amina gold invest, Kattakurgan cluster, Kattakurgan g'alla cluster, Amin invest intertational                       | Samarqand konserva, Bog'izag'on, Naim Diyorbek kishmish bog'lari                          | Maroqand Sifat tekstil, Omonboy Formonov, Ukraj Fayz                                                                |
| <b>Kichik agrosanoat klasterlari</b> | Samarqand cotton cluster SCC, Payariq Yangiyer tekstil, Payariq klaster                                             | Agromir Adas, Sardor tomorqa xizmati, Urgut agro-vet Servis, Fayz Bashirbek yuksalish     | Kattaming urug'chilik clasteri, Samarqand don tayyorlash klasteri, Nurobod agro kimyo                               |

Jadval olib borilgan tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hozirga qadar tashkil etilgan klasterlarning 6,5 foizi o'rganilayotgan hududga to'g'ri keladi. Shundan Kattaqo'rg'on tumaniga 17,8 foiz, Toyloq tumaniga 12,1 foiz, Urgut tumaniga 12,1 foiz, Payariq tumaniga 9,7 foiz, Samarqand tumaniga 5,5 foiz, qolgani esa boshqa tumanlar hissasiga to'g'ri keladi (2-jadval). Yuqoridagi ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, viloyatdagi qolgan aksariyat klasterlar don mahsulotlarini fermerlar bilan qilingan fyuchers shartnoma asosida sotib oladi, ularni ochiq va yopiq saqlash omborlarida yig'ib ularni un kombinatlariga sotish bilan shug'ullanadi.

Kelajakda har bir klasterda un va un mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi klasterlarga yetarlicha imkoniyat berilsa, shu tumanlarda yashovchi aholi iste'moli uchun arzon sifatli un va chorvachilikda omuxta yem bilan ta'minlangan bo'lamiz.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarini faoliyat turlari bo'yicha tasnifladik. Tasniflashda asosan klasterlarning viloyat iqtisodiyotida tutgan o'rni, ajratilgan yer maydonlari, aholining bandlik darajasi, jalb qilingan investitsiyalar miqdori, eksport salohiyati va tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonlari hamda boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha biz ularni guruhlariga bo'ldik (3-jadval).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish muammolari va istiqbollari”** deb nomlangan.

